

**KASB-HUNAR MAKTABLARINING UMUMTA'LIM FANLARIDA " OLTI SHLAPA  
USULI , TESKARI TEST HAMDA FSMU " METODLARINING QO'LLANILISHI.**

**Tohirova Mohinur Bahodir qizi**

*Buxoro shahar kasb-hunar maktabi Fizika fani o'qituvchisi*

**Sharopova Matluba Isroilovna**

*Ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Alimova Dilfuza Obidovna**

*huquq fani o'qituvchisi,*

**Annotatsiya:** Maqolada kasb-hunar maktablarining umumta'lim fanlarida , jumladan davlat va huquq asosalari , ona- tili va adabiyot hamda fizika fanlarida dars jarayonida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalangan holda darlarni tashkil etish to'g'risida fikr yuritiladi .

**Tayanch so'zlar:** Ta'lim metodlari, darslarni zamonaviy tashkil etish, " Olti shlapa metodi " , " Teskari test metodi " , " FSMU " metodi.

Barchamiz rivojlangan ilmiy –texnikaviy jamiyatda yashayapmiz.Har bir sohada zamonaviylik ustun, jumladan ta'limda ham . Ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanilmasa o'quvchilar ijtimoiy hayotning turli jabhalaridan olayotgan ma'lumotlari orqali nafaqat ta'limda balki tarbiyada ham oqsoqlikka uchrab boradi. Shuning uchun ham ta'limda zamonaviy metotlar keng qo'llanilsa yuqori samaradorlikka erishiladi. Ta'limning zamonaviy metodlari har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga , mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan . O'qitivchi bu jarayonda o'quvchi shaxsi va guruhlariga bo'linib ishlayotgan jamoaning shakllanishi , rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik , yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olsin , fikrlarini ravon aytib, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirishi lozimligi muhim ahamiyatga ega . Hozirgi kunda interfaol metodlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, Ularning aksariyati tajribadan o'tib yaxshi natija bergan .Keng qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lgan Olti shlyapa metodi . Bu usul juda ko'p qirrali. U

yakka tartibda, bir kishi uchun yoki guruh bilan ishlashda ishlatilishi mumkin. Ikkinchi holda, ikkita rol o'ynash varianti mavjud:

1. Hamma bir xil rangdagi shlyapalarni kiyadi va bir vaqtning o'zida rollarni o'zgartiradi.

2. Har bir ishtirokchi yoki ishtirokchilar guruhiga o'yin oxirigacha o'zgarmas rol beriladi.

Rollar o'z qahramonlariga qarama-qarshi bo'lgan ishtirokchilarga beriladi.

Jamoa bilan ishlash qoidalari quyidagilardan iborat:

- Moderator o'yinni boshqaradi - qoidalarni o'rnatadi, ularning bajarilishini nazorat qiladi, tartibni saqlaydi, rollarni taqsimlaydi, eslatmalar qiladi, xulosalar chiqaradi. Moderator - ko'k shlyapa. O'yin de Bononing oltita shlyapa texnikasiga kirish bilan boshlanadi. Keyin moderator muammoli vaziyatni, hal qilinishi kerak bo'lgan vazifani taklif qiladi.

- O'yinchilar bir xil rangdagi shlyapalarni kiyishadi (agar ishtirokchilar guruhlarga bo'lingan bo'lsa, ular oq shlyapalar guruhidan boshlab navbatma-navbat harakat qilishadi) va rang roliga qarab muammoni tasvirlaydilar.

- Shlyapalarni almashtirish tartibi qat'iy emas, lekin birinchi navbatda oq shlyapadagi barcha ma'lumotlarni o'rganish, qora shlyapadagi xavf va muammo tomonini baholashga o'tish tavsiya etiladi. Sariq kuchli tomonlarini aniqlashga va ijobiy natijaga ishonishga yordam beradi.

- Shundan so'ng yashil, ijodiy shlyapa vaqti keladi. Barcha nozikliklar va ob'ektiv ma'lumotlarning tan olinishi bilan biz butun rasmni ko'rishni boshlaymiz va muqobil echimlarni, nostandart kombinatsiyalarni, ijodiy harakatlarni izlaymiz.

- Qizil shlyapa vaqti-vaqti bilan, qisqa vaqt davomida kiyiladi. Bu sizga his-tuyg'ularga yo'l qo'yish, ichki ovozni tinglash imkonini beradi. Agar siz uni uzoq vaqt davomida kiysangiz, ehtiros issiqligidan vaziyat nazoratdan chiqib ketadi.

- Yangi g'oyalar sariq va qora shlyapalar bilan qayta tekshiriladi, ko'k esa olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Empirik tarzda shlyapalar bilan ishlashning maqbul ketma-ketligi tanlanadi, chunki tartibni belgilaydigan qat'iy tartibga solish yo'q. "Oltita fikrlash qalpoqlari" usuli Amerika va Evropa maktablarida birinchi sinflardan boshlab qo'llaniladi. Bolalar tanqidiy fikrlashni juda tez o'rganadilar. Natijada, ular turli darajadagi murakkablikdagi muammolarni osongina yechadilar, mustaqil va o'ziga ishonadilar. Ularni o'quv jarayonining o'zi qiziqtiradi, ular javoblarni qanday topishni, ularni bahslashishni, dalillar va faktlar bilan

tasdiqlashni biladilar. Kasb – hunar maktablarida ham umumta'lim fanlaridan adabiyot, ingliz tili va tarix , huquq ,fizika darslarida ham ushbu uslubni muvaffaqiyatli qo'llasa bo'ladi. Jumladan, **huquq** darsida quyida berilgan kazu orqali o'quvchilar ushbu metoddan foydalanishlari mumkin .

**Yuridik kazu** . Fuqaro B. yuridik universitetga o'qishga kirish uchun hujjat topshirib, to'lov kontrakti asosida talabalikka tavsiya etildi. Shundan so'ng B. universitet tegishli bo'linmasidan to'lov kontrakt shartnomasi olib tegishli to'lovni amalga oshirdi.O'qish boshlanganidan so'ng, kunlarning birida B. fuqarolik huquqi fanidan leksiya mashg'ulotlari bo'lishi kerak bo'lgan auditoriyaga kechikib keldi va leksiya mashg'ulotlarini olib borayotgan professor-o'qituvchi B.ning o'tirishiga ruxsat bermadi. B. esa o'zi universitet talabasi hisoblanishi, shuningdek, tegishli tartibda kontrakt summasini to'lab qo'yganligi, leksiyaga kirish esa uning to'laqonli huquqi ekanligi, o'qituvchining esa uni o'tirishiga ruxsat bermaslikka haqqi yo'qligini keltirib o'tdi.O'qituvchi tomonidan esa uning harakatlari universitet odob axloq qoidalarini buzish (professor-o'qituvchiga dars mashg'ulotlarini o'tkazishda xalaqit berish) ekanligi ta'kidlanib, dars mashg'ulotlaridan chiqib ketish talab qilindi. B. esa bunga javoban universitet ichki tartib qoidalarini faqat o'qituvchilar uchun ekanligi, bu qoidalarga B. rioya qilishga majbur emasligini iddao qilib, jahl qilganicha darsdan qichib ketdi.Dars mashg'ulotlaridan chiqqan B. Temuriylar muzeyi orqa tomoniga o'tib tamaki mahsulotlarini is'temol qilayotganda dekanat mas'ul vakillarini uni ko'rib qolib, uning bu xarakatlari odob axloq qoidalarini buzish ekanligi, unga tegishli chora ko'rilishini aytishdi va bir haftadan so'ng universitet rektorinig tegishli buyrug'iga asosan uniga hayfsan chorasini qo'llanildi.Bundan norozi bo'lgan B. sudga murojaat qilib, ushbu hayfsanni bekor qilishni so'radi. Sud jarayonida esa universitet vakillari B. tomonidan sodir etilgan harakatlar universitet odob axloq qoidalariga zidligi, ushbu harakatlarga universitet ichki tartib qoidalariga muvofiq chora ko'rilganligi, qolaversa, talaba bilan tuzilgan kontrakt shartnomasida talaba universitet ichki tartib qoidalarini va odob axloq qoidalariga rioya qilishi kerakligi keltirilganligi, ko'rilgan yaoralar asosli ekanligi keltirildi. Ishda B. tomonidan qatnashayotgan advokat esa aslida shartnomada shunga o'xshagan (odob-axloq qoidalariga rioya qilish) shartni kiritishning o'zi noto'g'ri ekanligi, shu sababli hafysanni bekor qilishni va B.ga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashni so'radi. Olti shlyapa metodi asosida vaziyatga huquqiy baho bering.

Adabiyot darsida asarni tahlil qilishda "Teskari test" metodidan foydalanish ham asar qahramonlarining portretini chizishda juda qo'l keladi.

Bunda testning javobi belgilanadi va o'quvchilar shu javobga muvofiq savol tuzadilar va bu metod javobga nisbatan qanday fikrlar borligini ko'rsatadi.

**Teskari test metodi** . 1.....?

- A) Saodat xola
- B) Qumri
- C) Bo'rixon
- D) Qorako'z majnun
- E) Usta turob

(savol variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin.)

1. Said Ahmadning Qorako'z majnun asarida epigraf qilib olingan parcha: " sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirigicha o'lsa , va ana o'shalarning (qilgan savobli ) amallari xabata ( bekor ) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar " qaysi qahramonning hayot kechinmasidan olingan ?

2.1970 yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi Xotini, qaynonasi bilan cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi , Qaynotasi vafotidan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi bo'lib ishga kirdi ... . Ushbu ta'rif Qorako'z majnun asarining qaysi qahramoni haqida ?

3.Qorako'z majnun asar qahramoni Saodat ayaning qaysi farzandi uning o'limiga sababchi bo'ldi , bir kechada uni adoyi tamom qildi , Balki u kelmaganida , Saodat aya o'lmasdi, farzandini kutishda davom etardi ?

Bu metod bir tushunchaga kengroq yondashishda, kam vaqt ichida katta natijaga erishishga yordam beradi.

Fizika fanida esa **FSMU** ( Fikr. Sabab. Misol. Umumlashtirish.) **metodining** qo'llanilish tartibi .

FSMU metodidan darsni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin. Foydalanish yo'li quyidagicha. Biror mavzu bo'yicha fikr beriladi. Shu mavzuni kelib chiqish sababi tushuntiriladi. Unga misol keltiriladi. Mavzu umumlashtiriladi.

Masalan: **Tezlik mavzusi** bo'yicha ko'rib chiqamiz.

**Fikr:** Vaqt birligida bosib o'tilgan yo'lni xarakterlaydi.

**Sabab:** Jismlar harakat qilish natijasida tezlik oladi.

**Misol:** Odam, ot, mashina tezlikka ega. Avtomobil tezligini spidometr ko'rsatib turadi. Radar o'zoqdan kelayotgan avtomobilning tezligini ko'rsatadi. Dan xodimlarining qo'lida har goim bo'ladi.

**Umumlashtirish:** Vaqt birligida bosib o'tilgan yo'lni xarakterlaydi. Jismlar harakat qilish natijasida tezlik oladi. Odam, ot, mashina tezlikka ega. Avtomobil tezligini spidometr ko'rsatib turadi. Radar o'zoqdan kelayotgan

avtomobilning tezligini ko'rsatadi. Dan xodimlarining qo'lida har goim bo'ladi.

Fikrimizni xulosalaydigan bo'lsak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlab uni amaliyotda qo'llash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darsda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Munavvarov.A.K Pedagogika. "O'qituvchi".1996
2. B. Xodjayev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Darslik.T.2017
3. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
7. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b